

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA STEAM TA’LIMINING QO‘LLANISHI VA UNING SAMARADORLIGI

**Maxammadjonova Sevara Fayzulla qizi
ADPI, Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo‘nalishi talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida STEAM ta’lim tizimini qo‘llash usullari uning samaradorligi, qanday ta’lim sohalarida qo‘llash mumkinligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM ta’limi, integratsiya, samaradorlik, ta’lim berish, fan, texnologiya, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoniga ko‘ra innovatsion ta’lim jarayoniga o‘tish zamonaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda intensive til, AKT va ta’lim berishning yangi metodlarini o‘rganish, STEAM pedagogika asoslarini o‘zlashtirish, uchun zarur bilimlar bazasini shakillantirish kabi masalalar vazifa qilib olindi.

STEAM texnologiyasi ta’limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o‘zaro munosib holda olib borishni taminlab beradi. O‘quvchi o‘zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim toppish va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakillantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo‘l keladi.

STEAM bu S-science, T-technology, E- engineering, A-art va M-math, ya’ni tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika. Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo‘lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi yo‘nalishi va amliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM ta’limining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya’ni, o‘rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo‘limiz bilan ham ishlashimiz kerak. STEAM ta’limi nafaqat o‘qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta’limi muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Shuning uchun, ular o‘z ulg‘ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi bo‘ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo‘yicha bilimga tayanish yetarli emas. STEAM ta’lim tizimi birinchi marta AQSHda qo‘llanilgan. Ba’zi maktablar o‘quvchilarini martabalarini etiborga olishadi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEAM tizimi shu tarzda shakillandi. O‘qituvchilar ushbu fanlardan egallangan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo‘lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibqt, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo‘llashadi. Agar biz an’anaviy ta’limning asosiy maqsadi bilimlarni o‘rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni birlashtirishga o‘rgatadi.

STEAM ta’lim tizimining bir nechta asosiy vazifalari:

1. STEAM ta’limi amaliy, loyihaga asoslangan ta’lim faoliyatiga urg‘u beradi, bunda talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini haqiqiy dunyo muammolariga qo‘llaydilar. Ushbu loyihalar ko‘pincha talabalarda hamkorlik qilish, tanqidiy fikrlash va yechim topish uchun innovatsiyalarni talab qiladi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

2. STEAM ta’lim tizimining yana bir vazifasi talabalarda ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirishdir. O‘quv dasturiga san’at va dizaynni kiritish orqali talabalar o‘zgacha fikr yuritishga, turli g‘oyalarni bilan tajriba o‘tkazishga va muammolarning original yechimlarini ishlab chiqishga undaydi.

3. STEAM ta’limi o‘quvchilarni axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash va mantiqiy xulosalar chiqarishni talab qiladigan ochiq, so‘rovga asoslangan faoliyatga jalb qilish orqali ularni tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu talabalarga muammoni hal qiluvchi va qaror qabul qiluvchi bo‘lishga yordam beradi.

Shuningdek STEAM metodikaning boshqa metodikalardan yana bir farqli jihati auditoriyada qo‘llanilishdan tashqari talabalarni mustaqil ta’limni yakka tartibda emas balki guruh-guruh bo‘lib amalga oshirish hamda talabalarni ijodkorlikda birlashtirishda. Bu metodikani amalga oshirishda o‘qituvchi auditoriyada o‘tilgan mavzuni mustahkamlash yoki kelgusi mavzuni o‘rganib kelish uchun bir nechta topshiriqlarni guruhlarga bo‘linib, o‘rganib kelishni vazifa sifatida berishi kerak bo‘ladi. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida STEAM ta’lim tizimidan foydalanishdan maqsad talabalarga nafaqat ushbu fanlarning asoslarini o‘rgatish, balki ularning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik va muloqotni rivojlantirishdan iborat.

STEAM ta’limida qanday amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish mumkin?

- Dasturlash va kompyuter texnologiyalari ko‘nikmalari.
- Muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari.
- Muhandislik tizimlari va uskunalari bilan ishlash ko‘nikmalari.
- Dizayn va ijodkorlik qobiliyati.
- Matematik tahlil va statistika bo‘yicha ko‘nikmalar.
- Guruhda muloqot va hamkorlik qobiliyatlari.
- Ilmiy usullar va tadqiqotlar bilan ishlash malakalari.
- Ma’lumotlarni tahlil qilish va axborot savodxonligi ko‘nikmalari

STEAM ta’lim tizimi o‘quvchilarda dasturlash, muammolarni yechish, texnologiya, dizayn, hisob-kitoblar, aloqa va ilmiy uslub kabi ko‘nikmalar to‘plamini rivojlantirishga intiladi. Bu tez o‘zgaruvchan dunyoga muvaffaqiyatli moslasha oladigan va malakali bitiruvchilarni yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, STEAM ta’limi bilan shug‘ullanuvchi talabalar standartlashtirilgan testlardan yaxshiroq natijalarga erishadilar, yuqori motivatsiya va faollik ko‘rsatadilar hamda oliy ta’lim va ishchi kuchiga yaxshiroq tayyorlanishadi.

Xulosa: STEAM kundalik hayotning ilmiy tadqiqot, texnika tarqqiyoti konsepsiyalari bilan ta’limning integrativ yondashuvini taqozo etadi. Bunday yondashuvdan maqsad ta’lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilish, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ‘ib qilishga qaratilgan.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmutazimova Y.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish (STEAM ta’lim texnologiyasi asosida) “Turon Iqbol” T;2021
2. Preschool educational practice. Guidelines for preschool teachers. State of Israel ministry of education preschool education division. 2010
3. Diane Belcher, Ann M. Johns, Brian Paltridge. New directions in English for specific purposes research. The University of Michigan Press 2011.
4. Jalilovna, M. M.(2024). Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modelini amalga oshirish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali, 4(2), 130-133.